

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 166 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Iloxmonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni	128
Eshev Furqat A'zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyorovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi	
Использование интеллектуальных технологий в процессе обслуживания клиентов банка	132
Хашимова Дилёра Пахритдиновна	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlar.....	138
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Import tovarlari bo'yicha aksiz solig'ini undirishning nazariy asoslari	143
Abdurasulov Murodjon Bahrom o'g'li	
Роль цифровых валют центральных банков в модернизации платёжной инфраструктуры: мировой опыт и перспективы Узбекистана	150
Срожиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini nazariy asosi	155
Sultonov Davronjon Rustam o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda strategik menejmentning roli	161
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	



TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING ROLI

Mamatraimov Islom Mamanazarovich

TDIU Savdo ishi kafedrası

katta o'qituvchisi

e-mail: islomshox20002@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tikuv-trikotaj korxonalarida raqobatbardoshlik darajasini oshirishda strategik menejmentning tutgan o'рни va amaliy ahamiyati chuqur tahlil etiladi. Bugungi kunda yengil sanoat sohasida, xususan, tikuv-trikotaj tarmog'ida jahon bozoridagi keskin raqobat sharoitida barqaror rivojlanishni ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish hamda ichki bozor talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarining boshqaruv tizimiga yangicha yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Strategik menejment bu borada samarali vosita sifatida korxonaning uzoq muddatli maqsadlariga erishish, tashqi va ichki omillarni chuqur tahlil qilish, innovatsion resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Maqolada strategik menejmentning asosiy elementlari - tashqi muhit tahlili, ichki salohiyatni baholash, strategik rejalashtirish va monitoring mexanizmlarining tikuv-trikotaj sanoatidagi real holatga tatbiq etilishi misollar asosida ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: strategik menejment, raqobatbardoshlik, strategik rejalashtirish, innovatsion boshqaruv, iqtisodiy samaradorlik, boshqaruv modeli.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the role and practical significance of strategic management in increasing the level of competitiveness in garment and knitwear enterprises. Today, in the light industry, in particular, in the garment and knitwear sector, ensuring sustainable development in the conditions of fierce competition in the world market, increasing export potential, and producing products that meet the requirements of the domestic market require the introduction of new approaches to the management system of enterprises. Strategic management, as an effective tool in this regard, allows achieving long-term goals of the enterprise, in-depth analysis of external and internal factors, and rational use of innovative resources. The article shows the application of the main elements of strategic management - analysis of the external environment, assessment of internal potential, strategic planning and monitoring mechanisms to the real situation in the garment and knitwear industry on the basis of examples.

Key words: strategic management, competitiveness, strategic planning, innovative management, economic efficiency, management model.

Аннотация: В статье дается глубокий анализ роли и практического значения стратегического управления в повышении уровня конкурентоспособности предприятий швейно-трикотажной промышленности. Сегодня в легкой промышленности, в частности, в швейно-трикотажной отрасли, обеспечение устойчивого развития в условиях жесткой конкуренции на мировом рынке, увеличение экспортного потенциала, выпуск продукции, отвечающей требованиям внутреннего рынка, требуют внедрения новых подходов в систему управления предприятиями. Стратегическое управление, как эффективный инструмент в этом плане, позволяет достигать долгосрочных целей предприятия, проводить глубокий анализ внешних и внутренних факторов, рационально использовать инновационные ресурсы. В статье на примерах показано применение основных элементов стратегического управления - анализа внешней среды, оценки внутреннего потенциала, механизмов стратегического планирования и мониторинга к реальной ситуации в швейно-трикотажной промышленности.

Ключевые слова: стратегическое управление, конкурентоспособность, стратегическое планирование, инновационный менеджмент, экономическая эффективность, модель управления.

KIRISH

So'nggi yillarda global iqtisodiyotda yuz berayotgan jadal o'zgarishlar va texnologik rivojlanishlar tikuv-trikotaj sanoatining raqobatbardoshligini tubdan shakllantirishga yangi talablar qo'ymoqda. Xususan, 2020–2025-yillar oralig'ida yengil sanoat, ayniqsa tikuv-trikotaj sohasida, mahalliy va xalqaro bozorlarda raqobat keskinlashgani kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining strategik yo'nalishlaridan biri bo'lgan yengil sanoat 2023-yilda yalpi ichki mahsulotda 6,8 % ga hissa qo'shgan bo'lsa, tikuv-trikotaj korxonalari



ushbu ko'rsatkichning taxminan 35–40 % ini tashkil qiladi [1]. Bu soha korxonalarining samarali faoliyati milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun muhimdir.

Global iqtisodiyotda raqobatning keskinlashuvi va iste'molchilarning talabchanligining ortib borishi sanoat korxonalarining, ayniqsa yengil sanoat tarmog'iga kiruvchi tikuv-trikotaj korxonalarining faoliyat yuritish mexanizmlarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Bugungi kunda raqobat ustunligini saqlab qolish, ichki va tashqi bozorlarda samarali ishtirok etish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun strategik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu nuqtayi nazardan qaralganda, strategik menejment tizimini joriy etish va uni tizimli asosda yo'lga qo'yish tikuv-trikotaj korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Strategik menejment — bu nafaqat korxonaning mavjud resurslarini samarali boshqarish vositasi, balki uning uzoq muddatli maqsadlariga erishish, bozor muhitidagi o'zgarishlarga moslashish, tashqi xavf-xatarlarni bartaraf etish hamda innovatsion yondashuvlar asosida faoliyatini diversifikatsiya qilish imkonini beruvchi kompleks boshqaruv mexanizmidir. Tikuv-trikotaj sanoatining o'ziga xos jihatlari — xomashyo manbalariga bo'lgan ehtiyoj, mehnat resurslariga tayangan ishlab chiqarish jarayoni, moda va dizayn tendensiyalariga tez moslashish zarurati kabi omillar korxonalardan yuqori darajadagi moslashuvchanlik va strategik qarorlar qabul qilishni taqozo etmoqda [2].

Raqobatbardoshlikni oshirish esa murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni ta'minlashda strategik menejmentning o'zni katta ahamiyatga ega. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, 2020–2025-yillarda strategik boshqaruvni muvaffaqiyatli tatbiq etgan tikuv-trikotaj korxonalari mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini 15–20 % ga oshirgan, shu bilan birga eksport hajmini o'rtacha 12 % ga kengaytirgan. Bu esa o'z navbatida korxona daromadlari va bozor ulushining sezilarli darajada o'sishiga olib kelmoqda.

Strategik menejment o'z ichiga olgan uzoq muddatli rejalashtirish, resurslarni optimallashtirish, innovatsiyalarni joriy etish hamda xodimlar salohiyatini rivojlantirish orqali korxonalarni tashqi va ichki muhitdagi o'zgarishlarga tez moslashish imkonini beradi. Shuningdek, strategik menejment vositalari — SWOT, PESTEL tahlillari, balanslangan ko'rsatkichlar tizimi kabi metodologiyalar korxonalarga o'z raqobat ustunliklarini aniqlash va mustahkamlashda samarali yordam beradi [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yengil sanoatni modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha qabul qilgan qator qaror va farmonlari soha rivoji uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tikuv-trikotaj korxonalarining ko'pchiligida strategik boshqaruv mexanizmlarining zaifligi, bozor tahlilining yetarli darajada olib borilmasligi, strategik rejalashtirish va monitoring tizimlarining samarasizligi ularning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonning tikuv-trikotaj sanoatida, ayniqsa kichik va o'rta biznes vakillari uchun strategik menejment tizimlarini joriy qilish bugungi kunda ustuvor vazifa hisoblanadi. Chunki bozordagi o'zgarishlar va global integratsiya jarayonlari sharoitida raqobatbardoshlikni oshirish faqat sifatli boshqaruv va doimiy innovatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, 2021–2024-yillar davomida pandemiya ta'siridan keyingi tiklanish davrida korxonalar o'z strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lib, samarali strategik menejment bu jarayonning asosiy omiliga aylangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tikuv-trikotaj sanoatining global miqyosda kuchayib borayotgan raqobat sharoitida samarali faoliyat yuritishi, korxonalarning ichki salohiyatini to'g'ri baholashi hamda tashqi muhitga moslashuvchan tarzda rivojlanishi bevosita strategik menejment yondashuvlarining qanday joriy etilganiga bog'liqdir. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularning ayrimlari aynan tikuv-trikotaj sanoatining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan strategik boshqaruv tamoyillarini o'rganishga bag'ishlangan. Quyida mazkur masalaga oid mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning adabiyotlari tahlili keltiriladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan S. Isroilov o'zining "Strategik boshqaruv" nomli darsligida korxonalarni boshqarishda uzoq muddatli rejalashtirish, tashqi muhitga moslashish va ichki resurslarni muvozanatli taqsimlash tamoyillarini chuqur yoritadi. Muallifning fikricha, O'zbekiston sanoat korxonalari, ayniqsa yengil sanoat tarmog'i zamonaviy strategik rejalashtirish vositalaridan foydalanishga ehtiyoj sezmoqda. R. Qodirov tomonidan tikuv-trikotaj sanoatida investitsion faoliyat va eksport salohiyati masalalariga oid olib borilgan tadqiqotlarda, ayniqsa raqobatbardoshlikni ta'minlashda strategik innovatsiyalar va tashqi bozor monitoringining o'zni alohida ta'kidlanadi [4]. D. G'ulomovning ilmiy izlanishlarida iqtisodiyotda strategik boshqaruvning milliy xususiyatlari, korxonalarda menejment tizimini transformatsiya qilish va bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish borasida nazariy va amaliy yondashuvlar taklif etilgan [5]. U tikuv-trikotaj tarmog'idagi kichik va o'rta biznes subyektlariga strategik model yaratish g'oyasini ilgari suradi. N. Abduqodirova yengil sanoat korxonalarining ichki menejment



tizimlari, mahsulot sifati va marketing strategiyalari bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida raqobatbardoshlikni oshirishda xodimlar salohiyatini rivojlantirish va bozor talablariga mos innovatsion yondashuvlarning zarurligini asoslaydi [6]. X. Xalilov esa o'z asarlarida O'zbekiston yengil sanoatida klaster yondashuvlarini joriy etish, xususan tikuv-trikotaj korxonalarini vertikal integratsiya qilish orqali strategik sinergiyaga erishish g'oyasini ilgari suradi [7]. Bu esa strategik menejmentning amaliy jihatlarini yanada kuchaytiradi.

Shu bilan birga, xorijiy iqtisodchi olimlardan Michael Porterning "Competitive Strategy" va "Competitive Advantage" asarlari strategik menejment nazariyasining poydevorini tashkil etadi [8]. Uning besh kuch modeli (five forces) tikuv-trikotaj sanoatida raqobat muhitini baholashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Porter raqobat ustunligi manbai sifatida differensiallashuv va xarajat ustuvorligini ko'rsatadi. Henry Mintzberg o'zining "Strategy Safari" kitobida strategiyaning ko'plab maktablarini tahlil qiladi va real korxonalarda strategiyaning shakllanishi doimiy o'zgarishlar va sinovlar asosida yuzaga kelishini ta'kidlaydi [9]. Tikuv-trikotaj tarmog'idagi beqaror talab sharoitida bu yondashuv dolzarb hisoblanadi. Gary Hamel va C. K. Prahalad "Competing for the Future" asarida strategik fikrlashning kelajakni bashorat qilishga emas, balki uni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi zarurligini urg'ulaydi [10]. Ularning "asosiy kompetensiyalar" (core competencies) nazariyasi tikuv-trikotaj korxonalari o'ziga xos texnologiyalar yoki dizayn salohiyatini strategik ustunlikka aylantira olishini ko'rsatadi. Philip Kotler marketing va strategik boshqaruvni integratsiyalashtirgan holatda olib borish zarurligini o'z tadqiqotlarida ta'kidlaydi [11]. Ayniqsa moda sanoatida brend yaratish, mahsulotni joylashtirish va mijozlar ehtiyojiga moslashishda marketing strategiyalari asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Robert Kaplan va David Norton tomonidan ishlab chiqilgan balanced scorecard konsepsiyasi strategik boshqaruvda o'lchov indikatorlarini belgilash va ularni doimiy nazorat qilish orqali natijaviylikni oshirish imkonini beradi. Tikuv-trikotaj korxonalarida moliyaviy, iste'molchi, ichki jarayonlar va o'sish nuqtayi nazaridan strategik tahlillarni yo'lga qo'yishda bu modelning ahamiyati beqiyosdir.

Yuqorida keltirilgan mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tikuv-trikotaj sanoatida raqobatbardoshlikni oshirish faqat texnik modernizatsiya bilan emas, balki strategik fikrlash, tizimli rejalashtirish, resurslarni samarali taqsimlash, innovatsion yondashuvlarni qo'llash va xalqaro bozor talablarini chuqur tahlil qilish orqali erishiladi. Mazkur adabiyotlar sharhi maqolaning nazariy asosini mustahkamlash bilan birga, strategik menejmentni amaliyotda tatbiq etish yo'llarini aniqlash uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda strategik menejmentning tikuv-trikotaj korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishdagi rolini aniqlash uchun sifat va miqdoriy tadqiqot usullari birgalikda qo'llandi. Nazariy jihatdan, ilmiy adabiyotlar tahlili asosida strategik menejment tamoyillari va ularning sanoat korxonalariga tatbiqi o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tikuv-trikotaj tarmog'i xususida olib borilgan tadqiqotlar asosan sohaning texnologik innovatsiyalar bilan uyg'unlashuvi, marketing strategiyalari, eksport salohiyati va ishlab chiqarish samaradorligi bilan bog'liq bo'lgan. Xitoy, Turkiya, Hindiston kabi mamlakatlarda tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishda hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan milliy strategiyalar, klaster yondashuvlari hamda raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan boshqaruv tizimlari muhim omillar sifatida ko'rsatilgan.

O'zbekiston kontekstida esa so'nggi yillarda yengil sanoat, xususan tikuv-trikotaj tarmog'ining rivojlanishiga oid qator normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va strategiyalar ishlab chiqildi. Biroq, mavjud adabiyotlarda ushbu strategik hujjatlarning real ishlab chiqarish tizimiga ta'siri, ularning menejment tizimidagi amaliy natijalari yetarlicha tahlil qilinmagan. Mamlakatimiz olimlaridan S. Isroilov, D. G'ulomov, O. Tolipov, R. Qodirov singari mutaxassislar o'z izlanishlarida yengil sanoat tarmog'idagi iqtisodiy samaradorlik, modernizatsiya jarayonlari, resurslardan foydalanish samarasi va boshqaruvning transformatsion jihatlarini muhokama qilganlar [12].

Bugungi kunda raqobatbardosh tikuv-trikotaj sanoatini shakllantirishda strategik rejalashtirish, bozor muhitining doimiy monitoringi, ichki resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalarni joriy etish, xodimlar salohiyatini rivojlantirish kabi omillar ilmiy izlanishlar markazida bo'lishi lozim. Xususan, tarmoq korxonalarining milliy va xalqaro bozordagi pozitsiyasini mustahkamlash uchun SWOT tahlil, PESTEL tahlil, balanslangan ko'rsatkichlar tizimi (Balanced Scorecard) kabi strategik menejment vositalarini tatbiq etish orqali raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlari kengayadi.

Avvalo, SWOT tahlili natijalari strategik menejmentning raqobatbardoshlikni shakllantirishdagi asosiy omil ekanligini ko'rsatdi. Korxonalarining kuchli tomonlari sifatida innovatsion texnologiyalarni qisman joriy etishi, malakali kadrlar bazasining mavjudligi va yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli hamkorliklar ajralib turdi. Zaif tomonlar esa rejalashtirishning yetarlicha samarali bo'lmashligi, marketing strategiyalarining eskirishi va moliyaviy resurslarning cheklanganligi bilan bog'liq.



PESTEL tahlili esa tikuv-trikotaj sanoatining tashqi muhitdagi imkoniyatlari va tahdidlarini aniqladi. Iqtisodiy o'sish, ichki bozorning kengayishi va davlat tomonidan yengil sanoatga ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari mavjud bo'lsa-da, xalqaro bozordagi keskin raqobat, yangi texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy cheklovlar va normativ-huquqiy noaniqliklar muhim tahdidlar sifatida qayd etildi (1-rasm).




1-rasm. Tikuv-trikotaj korxonalarida strategik menejmentni amalga oshirish jarayoni [13]

Tadqiqot natijalariga ko'ra, strategik menejmentni tizimli joriy etgan tikuv-trikotaj korxonalari raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirgan, mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligi yaxshilangan. Bu esa korxonalar daromadlarining o'sishiga, yangi bozorga chiqish imkoniyatlarining kengayishiga olib kelgan. Jumladan, strategik rejalashtirish jarayonlarini to'liq yo'lga qo'ygan korxonalarda 2020–2024-yillar davomida ishlab chiqarish samaradorligi o'rtacha 18 % ga, mahsulot sifati esa 12 % ga yaxshilangan [14]. Shu bilan birga, ushbu davrda eksport hajmi o'rtacha 14 % ga o'sib, bozordagi ulushi kengayganligi qayd etildi.

SWOT tahlili natijalariga ko'ra, korxonalar o'z kuchli tomonlari sifatida yuqori malakali xodimlar, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari va mahalliy bozorni yaxshi tushunishni ko'rsatdilar. Zaif tomonlari sifatida esa strategik menejmentning ba'zi elementlarini to'liq tatbiq etmaslik, innovatsiyalarni joriy etishdagi sustlik va moliyaviy resurslarning yetishmasligi aniqlangan.

Tashqi muhitni o'rganishda PESTEL tahlili 2020–2025-yillarda siyosiy barqarorlik, soliq siyosati va eksport imkoniyatlarining yaxshilanganini ko'rsatdi. Biroq global iqtisodiy beqarorlik va xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi tahdid sifatida saqlanib qolmoqda (2-rasm).



2-rasm. Tikuv-trikotaj korxonasining iqtisodiy ko'rsatkichlariga strategik menejment tizimining ta'siri



Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, strategik menejment vositalarini tizimli qo'llash tikuv-trikotaj korxonalariga nafaqat ichki samaradorlikni oshirish, balki xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini kuchaytirishga imkon beradi. Ushbu jarayonda uzoq muddatli rejalashtirish, resurslarni optimallashtirish va xodimlarni rivojlantirish strategiyalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tikuv-trikotaj sanoatida raqobatbardoshlikni oshirish uchun strategik menejmentning to'liq va tizimli tatbiqi zarurligi aniqlandi. Mazkur yondashuv korxonalarga ichki va tashqi muhitni samarali boshqarish, resurslarni optimallashtirish hamda bozordagi raqobatga muvaffaqiyatli javob berishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, tikuv-trikotaj korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda strategik menejmentning roli beqiyosdir. Korxonalar tomonidan strategik menejment tamoyillarining tizimli va samarali tatbiqi ichki resurslarni to'g'ri boshqarish, tashqi bozordagi imkoniyat va tahdidlarni aniqlash hamda ular asosida moslashuvchan strategiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi. Tadqiqot davomida aniqlandiki, strategik menejmentning asosiy komponentlari — uzoq muddatli rejalashtirish, innovatsiyalarni joriy etish, xodimlar salohiyatini rivojlantirish va resurslarni samarali taqsimlash — korxonalarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, strategik menejmentni chuqur va tizimli joriy etish tikuv-trikotaj korxonalariga nafaqat raqobatbardoshlikni oshirish, balki bozor sharoitlariga tez moslashish, yangi imkoniyatlarni egallash va barqaror rivojlanish yo'lida muhim ustunliklar beradi. Shu sababli, ushbu sohada faoliyat yurituvchi korxonalar uchun strategik boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akhmedov, S., & Yusupova, D. (2020). Strategik menejment asoslari. Toshkent: Ilm Ziyo.
2. Alimova, N. (2019). Tikuv-trikotaj sanoatida raqobatbardoshlikni oshirish omillari. Iqtisodiyot va boshqaruv, 3(45), 78-81.
3. Bazarov, T. (2018). Korxonalar strategik boshqaruvi. Toshkent: Fan va Texnologiya.
4. Egamberdiyev, M., & Rakhmonov, I. (2021). Yengil sanoatda innovatsiyalar va raqobatbardoshlik. Yangi Avlod, 2(10), 56-57.
5. Karimov, J. (2017). Tikuv-trikotaj korxonalarida samarali boshqaruv usullari. Sanoat va Innovatsiya, 4(12), 32-35.
6. Mintzberg, H. (1994). The Rise and Fall of Strategic Planning. New York: Free Press.
7. Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press.
8. Johnson, G., Scholes, K., & Whittington, R. (2008). Exploring Corporate Strategy (8th ed.). Pearson Education.
9. Barney, J. B. (1991). Firm resources and sustained competitive advantage. Journal of Management, 17(1), 99-103.
10. Grant, R. M. (2016). Contemporary Strategy Analysis (9th ed.). Wiley.
11. Wheelen, T. L., & Hunger, J. D. (2017). Strategic Management and Business Policy. Pearson.
12. Hill, C. W. L., & Jones, G. R. (2013). Strategic Management: An Integrated Approach. Cengage Learning.
13. Dess, G. G., Lumpkin, G. T., & Eisner, A. B. (2018). Strategic Management: Creating Competitive Advantages. McGraw-Hill Education.
14. <https://uzts.uz/uzb/oztoqimachilik sanoat/>, <https://stat.uz/uz/>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>